



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti





№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelsbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

SUN'IY INTELEKT: MADANIY VOSITACHIMI YOKI MADANIY "DARVOZABON" MI? CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH UCHUN TANQIDIY NAZARIY ASOS

Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
v.b. dotsenti, ped. f. f. d. (PhD)

<https://orcid.org/0009-0000-6043-4829>

Annotatsiya: Generativ sun'iy intellekt (GenAI) chet tili ta'limiga jadal kirib bormoqda, biroq uning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi ikkiyoqlama tabiati bir tomondan madaniy vositachi, ikkinchi tomondan madaniy "darvozabon" (gatekeeper) sifatidagi roli yetarli tanqidiy tahlil qilinmagan. Ushbu maqola empirik va nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish orqali GenAI vositalarining madaniy xolislik va nomutanosiblik xavflarini, shuningdek, ularning ta'limiy salohiyatini yoritadi. Tahlil natijalari GenAI tizimlarining G'arb va ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar qadriyatlariga moyilligini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek, chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi zarurligini ko'rsatdi. Maqola yakunida bo'lajak o'qituvchilar uchun to'rt komponentli tanqidiy nazariy asos (aniqlash, tekshirish, vositachilik qilish, aks ettirish) taklif etiladi.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt; madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi; algoritmik xolislik; tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi; chet til o'qituvchilarini tayyorlash.

Abstract: Generative artificial intelligence (GenAI) is rapidly being integrated into foreign language education; however, its dual nature in developing intercultural communicative competence-as a cultural mediator on the one hand and a cultural "gatekeeper" on the other-has not yet received sufficient critical examination. Through a systematic analysis of empirical and theoretical sources, this article explores the risks of cultural bias and imbalance associated with GenAI tools, as well as their educational potential. The findings reveal evidence indicating that GenAI systems tend to favor the values and perspectives of Western and English-speaking countries and highlight the need to develop critical AI literacy in foreign language teacher education. Finally, the article proposes a four-component critical theoretical framework for pre-service teachers consisting of identification, verification, mediation, and reflection.

Key words: generative artificial intelligence; intercultural communicative competence; algorithmic fairness; critical AI literacy; foreign language teacher education.

Аннотация: Генеративный искусственный интеллект (GenAI) стремительно внедряется в процесс обучения иностранным языкам, однако его двойственная природа в формировании межкультурной коммуникативной компетенции - с одной стороны, как культурного посредника, а с другой - как культурного "привратника" (gatekeeper) - до сих пор не получила достаточного критического осмысления. В данной статье посредством систематического анализа эмпирических и теоретических источников рассматриваются риски культурной предвзятости и дисбаланса, присущие инструментам GenAI, а также их образовательный потенциал. Результаты анализа выявили данные, подтверждающие склонность систем GenAI к ценностям западных и англоязычных стран, а также продемонстрировали необходимость формирования критической грамотности в области искусственного интеллекта при подготовке преподавателей иностранных языков. В заключение статьи предлагается четырехкомпонентная критическая теоретическая модель для будущих преподавателей, включающая следующие компоненты: выявление, проверка, посредничество и рефлексия.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект; межкультурная коммуникативная компетенция; алгоритмическая беспристрастность; критическая грамотность в области искусственного интеллекта; подготовка преподавателей иностранных языков.



KIRISH

Generativ sun'iy intellekt (GenAI) texnologiyalarining chet til ta'limiga jadal kirib borishi so'nggi uch-to'rt yil ichida ta'lim tadqiqotlarining markaziy mavzularidan biriga aylandi ^[1]. ChatGPT va shunga o'xshash yirik til modellari (LLM) talabalarga individuallashtirilgan mashqlar, tezkor fikr-mulohaza va cheksiz muloqot amaliyoti imkoniyatini taqdim etib, til o'qitish metodikasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi ^[2]. Biroq ushbu texnologik imkoniyatlarning aksariyati til bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, GenAI vositalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni nisbatan kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda ^[3].

Muammoning dolzarbligi shundaki, GenAI tizimlari garchi "neytral" yoki "obyektiv" vosita sifatida taqdim etilsa-da, aslida ularni o'qitish uchun ishlatilgan matnli korpuslarning madaniy, tilshunoslik va mafkuraviy tarkibini aks ettiradi ^[4]. Boshqacha aytganda, GenAI bir tomondan talabalarga turli madaniyatlar haqida ma'lumot va muloqot amaliyoti taqdim etuvchi madaniy vositachi (cultural mediator) vazifasini bajarishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar uning javoblari muayyan madaniy qarashlarni ustuvor qilib ko'rsatsa yoki boshqa madaniyatlarni noto'g'ri, soddalashtirilgan yoki stereotipik tarzda aks ettirsa, u madaniy "darvozabon"ga, ya'ni qaysi madaniy ma'nolar "to'g'ri" yoki "ko'rinadigan" ekanligini bir tomonlama belgilovchi vositaga aylanishi mumkin ^[5].

Ushbu ikkiyoqlama xavf-imkoniyat muvozanati, ayniqsa, bo'lajak chet til o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu mutaxassislar kelajakda GenAI vositalaridan sinfda foydalanish yoki foydalanmaslik, ularning natijalarini tanqidiy baholash va o'quvchilarga madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish borasida pedagogik qarorlar qabul qiluvchi shaxslar hisoblanadi ^[6]. Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi so'nggi ilmiy adabiyotlar asosida GenAIning madaniy vositachilik va madaniy "darvozabonlik" funksiyalarini tanqidiy tahlil qilish hamda chet til o'qituvchilarini tayyorlash uchun amaliy nazariy asos taklif etishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

- (1) GenAI vositalari madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda qanday ijobiy salohiyatga ega?
- (2) Empirik dalillar GenAI tizimlarining madaniy xolisligi bo'yicha nimalarni ko'rsatadi?
- (3) Chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari ushbu ikkiyoqlama xavfni bartaraf etish uchun qanday tanqidiy savodxonlik komponentlarini o'z ichiga olishi lozim?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qator tadqiqotlar GenAI vositalarining chet tili ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, Sarwari va boshqalar ^[7] ko'p madaniyatli universitet muhitida magistrantlar orasida o'tkazgan tadqiqotida GenAI vositalaridan muntazam va maqsadli foydalanish madaniyatlararo tushunishning oshishi bilan bog'liqligini aniqladi, garchi natijalar talabalarining raqamli savodxonligi va oldingi madaniy tajribasiga bog'liq holda farqlansa-da. Klimova va Chen ^[3] tomonidan o'tkazilgan tizimli sharh GenAI va AKT vositalarining universitet talabalarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'n bir tadqiqotni tahlil qilib, chatbotlar va virtual reallik vositalarining o'quvchilarga madaniy farqlarni real vaqt rejimida his qilish va ular bilan ishlashga o'rgatishda o'lchanadigan samaradorlik ko'rsatishini, biroq tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli va metodologik jihatdan xilma-xil ekanligini ta'kidladi.

Kohnke, Moorhouse va Zou ^[2] GenAIning til o'qitishdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, uning talabalarga turli registrlarda, uslublarda va madaniy kontekstlarda til birliklarini generatsiya qilish orqali madaniy-pragmatik xilma-xillikni namoyish etish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday vositalar, ayniqsa, chet tilida tabiiy suhbatdosh topish imkoniyati cheklangan o'quv muhitlarida (masalan, kam resursli yoki chekka hududlardagi ta'lim muassasalarida) talabalarga muqobil muloqot amaliyoti maydonini yaratib berishi mumkin. Miao va Xolms tomonidan tayyorlangan YuNESKOning rasmiy qo'llanmasida ham GenAI ta'lim tengligini oshirish salohiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi, biroq bu salohiyat faqat texnologiyaning o'zidan emas, balki uni pedagogik jihatdan to'g'ri vositachilik qilingan holda qo'llashdan kelib chiqishi alohida ta'kidlanadi ^[8].

Shu bilan birga, so'nggi yillarda o'tkazilgan bir qator yirik miqyosli empirik tadqiqotlar GenAI tizimlarining madaniy xolisligi bo'yicha jiddiy tashvishlarni ochib berdi. Eng ishonchli dalillardan biri sifatida Tao, Viberg, Beyker va Kizilsek tomonidan PNAS Nexus jurnalida chop etilgan tadqiqotni keltirish mumkin ^[4]. Mualliflar besh xil keng qo'llaniladigan yirik til modelini (GPT-4o, GPT-4-turbo, GPT-4, GPT-3.5-turbo, GPT-3) 107 ta davlat va hududning vakillik so'rovlari ma'lumotlari bilan qiyoslab, barcha tekshirilgan modellar ingliz tilida so'zlashuvchi G'arbiy Yevropa davlatlariga xos qadriyatlarga sezilarli darajada moyil ekanligini aniqladilar. Bu natija shuni ko'rsatadiki, GenAI tizimlari o'zlarini "universal" yoki "madaniy jihatdan neytral" vosita sifatida taqdim etsa-



da, aslida ular muayyan madaniy nuqtai nazarni me'yor sifatida ko'rsatib, boshqa madaniyatlarni "og'ish" yoki "istisno" sifatida talqin qilish xavfini tug'diradi.

Bunga qo'shimcha ravishda, Naous, Ryan va Xu ^[5] o'tkazgan tadqiqot yirik til modellarining arab tilidagi va G'arb madaniyatiga oid kontekstlarni taqqoslab, modellarning mahalliy madaniy kontekstga oid so'rovlarga ham ko'pincha G'arbcha me'yor va taxminlar asosida javob berish tendensiyasini namoyon qilishini aniqladi, ya'ni model ko'pincha mahalliy madaniy kontekstga mos kelmaydigan, ammo G'arb madaniyatida odatiy hisoblangan ssenariylarni taklif qiladi. Xuddi shunday, boshqa tadqiqotlar GenAI tizimlarida irqiy, jinsiy va ijtimoiy-iqtisodiy stereotiplarga oid tizimli og'ishlar mavjudligini tasdiqlagan ^[9].

Ushbu dalillarning metodik ahamiyati shundaki, ular GenAIning madaniy "neytralligi" haqidagi keng tarqalgan taxminni bevosita rad etadi. Agar chet til o'qituvchisi yoki talaba GenAI tomonidan taqdim etilgan madaniy ma'lumotni tanqidiy tekshirmasdan qabul qilsa, u nafaqat noto'g'ri, balki bir tomonlama madaniy qarashlarni ham o'zlashtirish xavfiga duch keladi. Shu nuqtai nazardan, GenAI shunchaki neytral "vositachi" emas, balki qaysi madaniy ma'nolar ko'rinadigan yoki "normal" deb taqdim etilishini bir tomonlama belgilovchi faol "darvozabon" vazifasini bajarishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola alohida empirik tadqiqot natijalarini emas, balki 2015-2025-yillar oralig'ida nashr etilgan ilmiy manbalarining tanqidiy-tahliliy sintezini taqdim etadi. Manbalar Scopus, Web of Science, ERIC va Google Scholar ma'lumotlar bazalaridan "generative AI", "large language models", "cultural bias", "intercultural competence", "critical AI literacy", "language teacher education" kalit so'zlari kombinatsiyasi asosida qidirildi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar qo'llanildi:

- (a) 2015-yildan keyin nashr etilgan bo'lishi;
- (b) taqqoslanuvchi tahlil, tizimli sharh yoki original empirik tadqiqot natijalarini taqdim etishi;
- (v) GenAI, madaniy xolislik yoki chet til ta'limi kontekstidagi tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi mavzulariga bevosita tegishli bo'lishi.

Tanlangan manbalar uch mavzuiy yo'nalish bo'yicha tizimlashtirildi va tahlil qilindi: GenAIning madaniy vositachilik salohiyati, uning madaniy xolislikka oid empirik dalillari hamda chet til o'qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi modellari. Natijalar tavsiflovchi-tahliliy usulda sintez qilinib, xulosa qismida amaliy nazariy asos ko'rinishida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ikkiyoqlama xavf-imkoniyat muvozanatini hisobga olgan holda, so'nggi tadqiqotlar chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarida tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligini shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlamog'da. Long va Magerko ^[10] tomonidan ishlab chiqilgan asosiy SI savodxonligi modeli "bilish va tushunish", "qo'llash", "baholash va yaratish" hamda "axloqiy masalalar" kabi to'rt komponentni o'z ichiga oladi, biroq bu model dastlab umumiy ta'lim konteksti uchun ishlab chiqilgan bo'lib, til va madaniyatga xos jihatlarni alohida ajratib ko'rsatmaydi.

Chet tili ta'limiga xos tanqidiy SI savodxonligi modellari yaqinda faolroq ishlab chiqila boshlandi. Tour, Pegrum va Makdonald ^[11] ingliz tili o'quvchilarini AI savodxonligi amaliyotlariga jalb qilishning konseptual asosini taklif qilib, til o'quvchilari nafaqat AI vositalaridan qanday foydalanishni, balki ularning natijalari qanday ishlab chiqarilishini va kimning manfaatlariga xizmat qilishini ham tanqidiy tushunishlari zarurligini ta'kidlaydi. Stokuell ^[12] esa GenAIning til o'qitishdagi yo'lini tahlil qilib, o'qituvchilarning texnologik vositalarni sinfga passiv tarzda kiritishdan ko'ra, ularning til va shaxsni shakllantirishdagi kuch munosabatlarini anglagan holda ongli pedagogik qarorlar qabul qilishlari lozimligini ta'kidlaydi.

Moorhouse va Kohnke ^[6] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot boshlang'ich chet til o'qituvchilari tayyorlash dasturlaridagi til o'qituvchi-ta'limchilarining GenAlga nisbatan qarashlarini o'rganib, ko'pchilik ta'limchilar GenAIning amaliy foydasini tan olsa-da, uning madaniy va axloqiy jihatlarini tanqidiy baholash uchun tizimli tayyorgarlikka ega emasligini aniqladi. Shunga o'xshash tarzda, Moorhouse va uning hamkasblari ^[13] tomonidan o'tkazilgan aralashuv tadqiqoti maxsus ishlab chiqilgan qisqa muddatli kurs orqali til o'qituvchi-ta'limchilarining professional generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini, biroq bunday kompetensiya tasodifan emas, balki maqsadli metodik aralashuv orqali shakllanishini ko'rsatdi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari uchun to'rt komponentli tanqidiy nazariy asos - AVR modeli (Aniqlash - Vositachilik - Refleksiya - Rag'batlantirish, ingl. Detect - Mediate - Reflect - Empower) taklif etiladi. Ushbu model quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).



1-jadval: Chet til o'qituvchilarini tayyorlash uchun AVR tanqidiy nazariy asosi

Komponent	Mohiyati	Amaliy misol
1. Aniqlash (Detect)	GenAI javoblarida madaniy og'ish yoki bir tomonlama qarashlarni aniqlash ko'nikmasi	Bir xil savolni turli madaniy kontekst bilan berib, javoblarni qiyoslash mashqi
2. Vositachilik (Mediate)	GenAI natijalarini o'quvchilarga tanqidiy tarzda taqdim etish va izohlash	AI javobini "yakuniy haqiqat" emas, balki muhokama boshlang'ich nuqtasi sifatida qo'llash
3. Refleksiya (Reflect)	O'z va o'quvchilarning AI natijalariga nisbatan munosabatini tahlil qilish	Refleksiv kundalik yoki portfolio orqali AI bilan ishlash tajribasini yozma tahlil qilish
4. Rag'batlantirish (Empower)	O'quvchilarni AI'ning madaniy cheklovlarini mustaqil tekshirishga undash	Loyihaviy topshiriq: AI javobini mahalliy ekspert yoki manba bilan solishtirish

Ushbu model amaliyotga tatbiq etilganda, u chet til o'qituvchisini GenAidan butunlay voz kechishga emas, balki uni ongli, tanqidiy va pedagogik jihatdan asoslangan tarzda qo'llashga yo'naltiradi. Xususan, "Aniqlash" komponenti o'qituvchilarga GenAI javoblarining madaniy neytral emasligini amaliy mashqlar orqali his qilish imkonini beradi. Masalan, bir xil savolni "oddiy oila bayrami" yoki "muvaqqafiyatli tadbirkor" kabi umumiy tushunchalar bo'yicha turli madaniy belgilar bilan so'rab, natijalar qanchalik G'arbcha me'yorlarga tayanishini kuzatish mumkin. "Vositachilik" komponenti esa o'qituvchining o'zini AI bilan o'quvchi o'rtasidagi passiv kanal emas, balki faol pedagogik vositachi sifatida ko'rishini talab qiladi: AI javobi darsda avtomatik ravishda "to'g'ri javob" sifatida taqdim etilmasdan, balki tanqidiy muhokama uchun material sifatida ishlatiladi.

"Refleksiya" komponenti bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy amaliyotida AI bilan ishlash tajribasini muntazam ravishda yozma yoki og'zaki tahlil qilishini nazarda tutadi, bu esa Moorhouse va boshqalar^[13] tomonidan qayd etilgan "tasodifiy emas, maqsadli shakllanish" tamoyiliga mos keladi. Nihoyat, "Rag'batlantirish" komponenti o'quvchilarning o'zlarini ham AI natijalarini tanqidiy tekshiruvchi faol subyektlarga aylantirishga qaratilgan bo'lib, bu Tour va boshqalar^[11] tomonidan taklif etilgan til o'quvchilarini AI savodxonligi amaliyotlariga jalb qilish g'oyasini kengaytiradi.

Alohida ta'kidlash lozimki, taklif etilgan model GenAIni til ta'limidan butunlay chetlashtirishni emas, balki uning ikkiyoqlama tabiatini - vositachilik salohiyati va darvozabonlik xavfini - bir vaqtning o'zida tan olgan holda undan ongli foydalanishni maqsad qiladi. Bu yondashuv YUNESKOning GenAI bo'yicha rasmiy tavsiyalarida ilgari surilgan "inson nazorati markazda qolishi kerak" tamoyiliga^[8] hamda tanqidiy AI savodxonligi bo'yicha so'nggi tadqiqotlarda ta'kidlangan "texnologik vositani emas, balki kuch munosabatlarini tushunish" talabiga^[12] mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada olib borilgan tanqidiy-tahliliy sintez shuni ko'rsatdiki, generativ sun'iy intellekt chet tili ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning kuchli, ammo ikkiyoqlama vositasidir. Bir tomondan, GenAI talabalarga kengaytirilgan muloqot amaliyoti, xilma-xil registr va kontekstlarga kirish imkonini berib, madaniy vositachi vazifasini bajarishi mumkin. Ikkinchi tomondan, so'nggi yirik miqyosli empirik tadqiqotlar, xususan, 107 davlat ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlil^[4], GenAI tizimlarining G'arb va ingliz tilida so'zlashuvchi qadriyatlariga tizimli moyilligini qat'iy tasdiqlaydi, bu esa uning nazoratsiz qo'llanilishi madaniy "darvozabonlik" xavfini keltirib chiqarishini ko'rsatadi.

Shu sababli bo'lajak chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari GenAidan foydalanish bo'yicha faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki taklif etilgan AVR (Aniqlash-Vositachilik-Refleksiya-Rag'batlantirish) kabi tanqidiy nazariy asosni ham o'z ichiga olishi zarur. Kelgusi tadqiqotlar ushbu modelning haqiqiy o'quv sharoitida amaliy sinovdan o'tkazilishini, uning turli til va madaniy kontekstlarda (jumladan, Markaziy Osiyo ta'lim tizimida) qo'llanilish samaradorligini hamda bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy AI savodxonligi darajasini o'lchovchi maxsus baholash vositalarini ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kasneci E., Seßler K., Küchemann S. [va boshq.] ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. - 2023. - Vol. 103. - Art. 102274.
2. Kohnke L., Moorhouse B.L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. - 2023. - Vol. 54, No. 2. - P. 537-550.
3. Klimova B., Chen J.H. The impact of AI on enhancing students' intercultural communication competence at the university level: A review study // Language Teaching Research Quarterly. - 2024. - Vol. 43. - P. 102-120.

4. Tao Y., Viberg O., Baker R.S., Kizilcec R.F. Cultural bias and cultural alignment of large language models // PNAS Nexus. - 2024. - Vol. 3, No. 9. - Art. pgae346.
5. Naous T., Ryan M.J., Xu W. Having beer after prayer? Measuring cultural bias in large language models // arXiv preprint. - 2023. - arXiv:2305.14456.
6. Moorhouse B.L., Kohnke L. The effects of generative AI on initial language teacher education: The perceptions of teacher educators // System. - 2024. - Vol. 122. - Art. 103290.
7. Sarwari A.Q., Javed M.N., Adnan H.M., Wahab M.N.A. Assessment of the impacts of artificial intelligence (AI) on intercultural communication among postgraduate students in a multicultural university environment // Scientific Reports. - 2024. - Vol. 14. - Art. 13611.
8. Miao F., Holmes W. Guidance for generative AI in education and research. - Paris: UNESCO, 2023. - 44 p.
9. Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N., Lerman K., Galstyan A. A survey on bias and fairness in machine learning // ACM Computing Surveys. - 2021. - Vol. 54, No. 6. - P. 1-35.
10. Long D., Magerko B. What is AI literacy? Competencies and design considerations // Proceedings of the 2020 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems. - New York: ACM, 2020. - P. 1-16.
11. Tour E., Pegrum M., Macdonald S. Engaging English language learners in AI literacy practices: A conceptual framework and practical strategies for educators // English Australia Journal. - 2025. - Vol. 41, No. 1. - P. 27-46.
12. Stockwell G. ChatGPT in language teaching and learning: Exploring the road we're travelling // Technology in Language Teaching & Learning. - 2024. - Vol. 6, No. 1. - Art. 2273.
13. Moorhouse B.L., Wan Y., Wu C., Kohnke L., Ho T.Y., Kwong T. Developing language teachers' professional generative AI competence: An intervention study in an initial language teacher education course // System. - 2024. - Vol. 125. - Art. 103399.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.